

Uzbekistan Airways "Men G'olib Run"da ishtirok etdi

2026 19 Yanvar

2026-yil 18-yanvar kuni Toshkent shahridagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida harbiy xizmatchilar, kuch tuzilmalari vakillari va Vatanga chin dildan sodiq fuqarolarni birlashtirgan "Men G'olib Run" harbiy-vatanparvarlik yugurish musobaqasi o'tkazildi.





Uzbekistan Airways tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan vatanparvarlik yugurish musobaqasida 11 kishi ishtirok etdi. Kompaniya xodimlarining ishtiroki hamjihatlik, ma'naviy kuch va faol fuqarolik pozitsiyasining yorqin namunasi bo'ldi. Barcha ishtirokchilar masofani munosib tarzda bosib o'tishdi va bu bilan ular jamoaviy ruh, chidamlilik va g'alabaga intilishni namoyon etdilar.









